



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASIDA SOG‘LIQNI SAQLASH MUASSASALARI BILAN HAMKORLIGINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Kursanti

Quvvatov Abduxoliq Mirzajon o‘g‘li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada profilaktika inspektorining sog‘liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligi, ushbu faoliyatning asosiy yo‘nalishlari, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida sog‘liqni saqlash hamkorlikni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog‘liq masalalar yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *hamkorlik, sog‘liqni saqlash muassasalari, profilaktika inspektorlari, tashkiliy asos, huquqiy asos, qaror, qonun, qo‘shma qaror, tan jarohati, xabardor qilish.*

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash siyosatning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan hamda bu boradi dolzarb islohotlar amalga oshirilmoqda desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ana shunday islohotlarni samarali amalga oshirish, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida Ichki ishlar organlari bir qator davlat tashkilotlari hamda muassasalari bilan bevosita hamkorlik qiladi. Ichki ishlar organlari bevosita hamkorlik qiladigan bunday tashkilotlardan biri bu sog‘liqni saqlash muassasalari hisoblanadi. Ichki ishlar organlarining sog‘liqni saqlash organlari bilan hamkorligi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo‘lib ushbu faoliyatning huquqiy asoslari yaratilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni ularning yuridik kuchiga ko‘ra qonunlar va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlariga ajratish mumkin.



Профилактика инспекторинг ҳуқуқбузарликлар профилактикасида соғ'лиқни сақлаш муассасалари билан ҳамкорлигининг ҳуқуқий асослари – қонунлар ва қонunchilik ҳужжатларида ifodalangan қoidalar, farmoyishlar va ko'rsatmalar hamda davlat organlarining ushbu faoliyatga doir buyruq, yo'riqnoma va boshqa normativ ҳужжатларининг yig'indisidir. Профилактика инспекторинг ҳуқуқбузарликлар профилактикасида соғ'лиқни сақлаш муассасалари билан ҳамкорлигининг ҳуқуқий асосларини mazmuniga ko'ra ikki turga:

1. fuqarolarning xulq-atvori, huquq va erkinliklarini, ma'lum harakatlarni amalga oshirishda o'rnatilgan ta'qiqalar va ularni buzganlik uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi normalarni o'z ichiga olgan tartibga soluvchi;
2. profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligi o'rtasidagi vazifalari, funksiyalari, vakolatlari, faoliyatining shakl va usullarini belgilovchi.

Профилактика инспекторинг ҳуқуқбузарликлар профилактикасида соғ'лиқни сақлаш муассасалари билан ҳамкорлигини samarali tashkil etish va boshqarish bu sohadagi huquqiy asoslarni muntazam monitoring qilib borishni, ularning ijtimoiy hayotga qay darajada mosligi va amal qilishini kuzatib borishni talab etadi.

Профилактика инспекторинг davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligining birinchi huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hisoblanadi. Konstitusiyaviy normalar ichki ishlar organlarining davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligini to'g'ridan to'g'ri tartibga solmasada, Konstitutsiyamizning 48-moddasida "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va



nodavlat shakllarini, tibbiy sugʻurtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini taʼminlash choralarini koʻradi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi” deb belgilab qoʻyilgan.

Profilaktika inspektorining davlat sogʻliqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalari bilan hamkorining eng asosiy huquqiy asoslaridan yana biri Oʻzbekiston Respublikasining **“Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida”**gi qonun hisoblanadi. Qonunning 9-moddasiga muvofiq sogʻliqni saqlash organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar tizimiga kiritilgan. Ushbu qonunning 18-moddasida esa Davlat sogʻliqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari koʻrsatib oʻtilgan boʻlib bular quyidagilardan:

- huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- fuqarolar sogʻligʻini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;
- fuqarolar sogʻligʻini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;
- aholi oʻrtasida sanitariya-gigiyenaga oid bilimlarni tarqatish boʻyicha ishlarni, shuningdek sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishni tashkil etish;
- aholi oʻrtasida muntazam tibbiy tekshiruvlarni tashkil etish;
- alkogolizmga, giyohvandlikka, zaharvandlikka, ruhiy kasalliklarga, OIV infeksiyasiga, tanosil kasalliklariga va atrofdagilar uchun xavf soluvchi boshqa kasalliklarga chalingan shaxslarni aniqlash, ularni hisobga olish,



tekshiruvdan o'tkazish, shuningdek ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;

- OIV infeksiyasi, alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik tarqalishining oldini olishga doir chora-tadbirlarni bajarish uchun mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- odam savdosidan jabrlanganlarni belgilangan tartibda ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko'rishdan iborat.

Shuningdek davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari ichki ishlar organlariga ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar va atrofdagilar uchun xavf soluvchi boshqa kasalliklar tarqalganligi, badaniga shikast yetgan yoxud behush holatda bo'lgan shaxslar kelib tushganligi yoki murojaat etganligi, odamlarning hayotiga yoki sog'lig'iga tahdid soladigan oilaviy-maishiy nizolar to'g'risida va oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi huquqbuzarliklar, voyaga yetmagan shaxs g'ayriijtimoiy xulq-atvorga va huquqbuzarliklar sodir etishga jalb etilganligi, hamda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar haqida xabar qilishi shart. Ushbu faoliyatni tartibga solishda Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Maktab va Maktabgacha vazirligining 2014-yil 4-noyabrdagi **“Huquqbuzarliklar faktlari hamda huquqbuzarliklar bilan bog'liq boshqa holatlar haqida ichki ishlar organlariga xabardor qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqidagi” 36\18\49\56-sonli qo'shma qaror** asosiy vazifalarni bajaradi. Ushbu qo'shma qaror asosida har qanday holatda ham fuqarolar tan jarohati bilan sog'liqni saqlash muassasasiga kelgan taqdirda ularni ro'yxatdan o'tkazishi va ularni bunday holatda kelganligi to'g'risida tuman yoki shahar IIB ga xabardor qilib qo'yish kerak bo'ladi

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunning 40-moddasiga muvofiq surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan shaxs



tomonidan jamoat tartibi, boshqa shaxslarning huquqlari buzilgan yoxud u aholining xavfsizligi, sogʻligʻi va jamiyatning axloqiga tahdid solgan taqdirda profilaktika inspektori tomonidan shaxsni majburiy davolashga yotqizish choralari koʻriladi. Bunday shaxslarni davolash esa bevosita sogʻliqni saqlash muassasalarida olib boriladi. Profilaktika inspektori davlat sogʻliqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda ma'muriy hududda mavjud giyohvand vositalariga ruju qoʻygan shaxslar bilan ishlashda narkologiya dispanseri xodimlari bilan profilaktik chora tadbirlar amalga oshiriladi.

Giyohvandlikni oldini olish profilaktika inspektori va davlat sogʻliqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalari bilan hamkorligining dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu vazifalarni belgilab beruvchi huquqiy asoslardan biri Oʻzbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustdagi «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar toʻgʻrisida»gi qonunidir. Qonunda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada boʻlishiga oid ijtimoiy munosabatlar tartibga solingan. Ushbu qonunning 45-moddasida sogʻliqni saqlash muassasalarining giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarga narkologik yordam koʻrsatish borasidagi faoliyati toʻgʻrisidagi qoida belgilangan boʻlib, unga koʻra narkologik yordamga muhtoj shaxsning iltimosi va roziligiga narkologik yordam koʻrsatilishi nazarda tutilgan

Hududiy profilaktika inspektori davlat sogʻliqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda ma'muriy hududda joylashgan har qanday inson yashash yoki yurish mumkin boʻlgan joylarda tozalik masalalari sanitariya holatlarini oʻrganishda ham hamkorlikni amalga oshiradi.

Yuqorida profilaktika inspektorining sogʻliqni saqlash muassasalari bilan hamkorligining bir qator huquqiy asoslarini sanab oʻtdik. Ushbu huquqiy asoslar bilan bir qatorda Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Ma'muriy



javobgarlik to'g'risidagi kodekslarni ham keltirib o'tishimiz mumkin. Sababi Jinoyat kodeksidagi shaxsning hayotiga, sog'lig'iga va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarni, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 52-moddasidagi yengil tan jarohati yetkazish, OITS va OIV, tanosil kasalliklarini tarqatish bilan bog'liq bir qator huquqbuzarliklarni aniqlashda sog'liqni saqlash organlari bilan hamkorlik qiladi.

Yuqorida keltirilgan qonunlar bilan qatorda ichki ishlar organlari qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida ham surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikning oldini olishga qaratilgan profilaktik choratadbirlarni amalga oshiradi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarga IIVning profilaktika xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlaridir. Ammo ushbu normativ hujjatlar qay darajada ishlashiga qaramasdan hozirgi kunda quyidagi muammolarni o'zida mujassam etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (yangi tahrir T.2024 // URL <http://www.lex.uz>)
2. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-may kungi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371 son qonuni // URL <http://www.lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi // URL <http://www.lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi // URL <http://www.lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 24-may kungi "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi O'RQ-844-son qonuni. Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi // URL <http://www.lex.uz>



6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 27-oktyabr kungi “Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to‘g‘risidagi O‘RQ-644-son qonuni Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi // URL <http://www.lex.uz>

7. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi qonuni. Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi // URL <http://www.lex.uz>

8. Ichki ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Maktab va Maktabgacha vazirligining 2014-yil 4-noyabrdagi “Huquqbuzarliklar faktlari hamda huquqbuzarliklar bilan bog‘liq boshqa holatlar haqida ichki ishlar organlariga xabardor qilish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqidagi” 36\18\49\56-sonli qo‘shma qaror

